



E‘TIBOR, ISHONCH VA NATIJA

QALBIMIZDA QAHRAMONLIK KODINI UYG‘OTGAN TARIXIY VOQEA

Boshlanishi 1-betda

Fikr va so‘z erkinligi ta‘minlandi, aholi murojaatlari bilan ishlash tizimiga jiddiy e‘tibor qaratildi. Bularning barchasi inson qadrini ulug‘lashdek ezgu g‘oyaga asoslandi. Xususan, futbolga e‘tibor ham tubdan o‘zgardi. Natijada birin-ketin yutuqlar qo‘lga kiritila boshladi. Ana shu jarayonda ruhiy qo‘llovning yana bir ajoyib an‘anasi shakllandi. Katta g‘alabalarni qo‘lga kiritgan sportchilarni Prezidentimiz telefon orqali shaxsan tabriklaydigan bo‘ldi. Hal qiluvchi o‘yin tun yarmida tugaganiga qaramay, davlatimiz rahbari Abu-Dabidagi o‘yindan so‘ng futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a‘zolariga qo‘ng‘iroq qildi. Muloqot davomida ularni tarixiy yutuq — ilk bor jahon chempionatiga chiqqani bilan samimiy tabrikldi. Subhatni ijtimoiy tarmoqlar orqali tong chog‘ida eshitdim. Davlatimiz rahbarining samimiy tabrigi, futbolchilarimizning o‘ziga ishonch bilan shukrona va tashakkur aytganini tinglab, qalbim tong havosiday musaffo tuyg‘uga to‘ldi. Shu kayfiyatda tarmoqlarni kuzataman. Barcha bir-birini tabriklagan, shuncha qarshilik, to‘siqqa qaramay qo‘li baland



kelgan sportchilarimizga rahmat aytgan... Hammaning kayfiyati bayramona.

Buni kuzata turib bir haqiqatga amin bo‘ldim: qahramonlar xalqni birlashtiradi. Ular esa doim oramizda. Muhimi — qahramonlarni elga tanitish, katta maydonga olib chiqa bilish. Ularni topish uchun barchaga birdek imkon berish, alplik sifatini namoyish etishga qodir yoshlarga yo‘l ochish kifoya. Keyingi yillarda mamlakatimizda aynan shu maqsadga qaratilgan ishlar bajarildi. Ushbu sa‘y-harakatlarning navbatdagi amaliy natijasi xalqimizning katta bayramiga aylanib ketdi. Bunday vaqtda xalq qalbi, kayfiyatining elchilari bo‘lgan shoirlar she‘r bitadi:

*Mening ham ko‘ksimda o‘rladi yolg‘in,
G‘olibman ruhu tan kezzan jangida...*

Qo‘shaloq bayram-la

*qutlayman, xalqim,
G‘alaba tongida, hayit tongida!
(Qo‘chqor Norqobil).*

Ha, yangi O‘zbekiston tarixida yana bir go‘zal tong otdi — zafarli yurishlarning navbatdagi qismi boshlandi. Bunday tuyg‘u olis xotiralar sari yetaklaydi.

Mehnat muhojiri bo‘lib yurgan chog‘imda qo‘shni davlatdagi millatdoshim bilan kimning vatani kuchli degan mazmunda bahslashdik. Bunday vaqtda “raqib”ning xatosini topib, nuqtasiga urgan kishining qo‘li baland keladi. Chegaralari yopilgan, bir-biriga viza orqali borib kelayotgan ikki qo‘shni mamlakatning qondosh bolalari munozaraga jiddiy kirishib ketdik. Shunda biz polvon deb ataydigan Bahodir aka gapimizni bo‘ldi: “Uyat, bir ota-enadan to‘rigan (tarqagan demoqchi) bolalar senmenga borib o‘tirsa. Undan ko‘ra bir-birigini himoya qilishni o‘rgan!”.

Jiddiy tanqiddan yuzimiz qizarib, indamay ishga sho‘ng‘idik. Keyinchalik bu voqea haqida ko‘p o‘yladim. Bahsimizning sababini axtardim. O‘zimcha javob topgan

bo‘ldim. E‘tibor qilsam, aksariyat hollarda moddiyatdan qiyналgan oilalarda g‘alag‘ovur ko‘proq bo‘lar ekan. Qolaversa, omadsiz kishilar ertangi kuniga unchalik ishonch bilan qaramaydi. Shu bois, gohida boshqalarning nuqsonini sanab o‘ziga taskin izlaydi. O‘shanda bahsimizga ana shunday omadsizlik sabab bo‘lgandir, ehtimol.

Keyingi yillardagi o‘zgarishlar, yangi O‘zbekistonning ochiqlik siyosati nafaqat xalqimiz hayotida, balki butun Markaziy Osiyo davlatlari taqdirida burilish yasadi. Bugun bir-birimizning yutuqlarimizni sanab, quvonchimizga sherik bo‘lyapmiz. Oddiy odamlar orasidagi bunday kayfiyat ertangi kunga ishonch, shonli tarixga mos tarzda yorug‘ kelajakdan darak.

— O‘tkir Yusupovni ko‘rdingizmi?! — O‘g‘limning xitobidan hushyor tortaman. —

Olti marta goldan saqlab qoldi. Husanov ham hujumni zo‘r qaytardi. Ko‘rasiz, jahon chempionatida ham zo‘r o‘ynaydi... Raqiblar o‘zbekistonlik muxlislardan qo‘rqib qolibdi. O‘zbeklar bir-birini qo‘llasa, 9 o‘yinchi bilan ham yutib ketadi deb kiritmaslik uchun qancha hunar qildi! Hey, baribir ish bermadi!

Balog‘at yoshiga yaqinlashib, ovozi do‘rillab qolgan o‘g‘limning gapidan zavqlanaman. “Bu — birdamlikning kuchi. Ahilikda gap ko‘p”, deyman. Keyin davlatimiz rahbarining futbolchilarimizga yo‘llangan tabrigidagi quyidagi so‘zlar yodimga tushadi: “Aminman, bu tarixiy yutuq xalqimizni ezgu maqsadlar yo‘lida yanada birlashtiradi, ming-minglab yoshlarimiz uchun ilhom manbaiga, ibrat timosliga aylanadi. Yangi O‘zbekistonning xalqaro obro‘-e‘tiborini yanada oshirishga xizmat qiladi”.

O‘g‘lim esa hamon o‘sha-o‘sha baland va yo‘g‘on ovozdahal qiluvchi o‘yin tafsilotlari — kelajakka katta umid bergan tarixiy voqea haqida so‘zlaydi!..

**Boboravshan G‘O‘ZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

“

Keyingi yillardagi o‘zgarishlar, yangi O‘zbekistonning ochiqlik siyosati nafaqat xalqimiz hayotida, balki butun Markaziy Osiyo davlatlari taqdirida burilish yasadi. Bugun bir-birimizning yutuqlarimizni sanab, quvonchimizga sherik bo‘lyapmiz. Oddiy odamlar orasidagi bunday kayfiyat ertangi kunga ishonch, shonli tarixga mos tarzda yorug‘ kelajakdan darak.



G‘ALABA — BUTUN XALQIMIZNIKI!

**Timur KAPADZE,
Futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi bosh murabbiysi:**

— Avvalo, bu nafaqat maydonda to‘p surgan futbolchilarning g‘alabasi, balki ortimizda ishonch ko‘zini tikib turgan qariyb 38 million nufuslik xalqimiz yuragidagi orzu-umidlar ijobati va duolar samarasidir.

Mundial yo‘llanmasi xalqimiz uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanini juda yaxshi bilaman. Chunki o‘tmishda o‘zim ham aynan shu orzu yo‘lida maydonga tushganman. BAAda qo‘lga kiritilgan g‘alaba — jamoamizdagi futbolchilarning o‘ziga ishonchi, mamlakatimizda sportga qaratilayotgan yuksak e‘tibor hamda g‘amxo‘rlikning amaldagi natijasi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘yin tugashi bilan davlatimiz rahbarining telefon orqali biz bilan muloqot qilgani hamda samimiy tabrik yo‘llagani o‘zimizga ishonchni yanada oshirdi. Prezidentimizning “Sizlar futbol maydonlaridagi mana shunday shonli yutuqdan yangi kuch va ruh olib, kelgusi yili AQSH, Meksika va Kanada davlatlarida bo‘lib o‘tadigan jahon



championatida nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining birinchi va yagona vakili bo‘lishdek yuksak sharafni chuqur his etgan holda, yanada katta jonbozlik ko‘rsatasizlar, deb ishonaman”, deya ishonch bildirgani biz uchun yuksak mas‘uliyatli sharaf.

Biz ana shu ishonchni oqlash uchun belimizni yanada mahkam bog‘lab, xalqimiz va Prezidentimiz oldida yuzimiz yorug‘ bo‘lishi uchun bor kuch va g‘ayratimizni safarbar etamiz.

ORTIMDA FAQAT DARVOZA EMAS, VATANDOSHLARIM TURGANINI HIS ETDIM

**O‘tkir YUSUPOV,
O‘zbekiston milliy terma jamoasi a‘zosi:**

— Rostini aytсам, hozir ko‘nglimdagi hissiyotni so‘z bilan ta‘riflab berish juda qiyin. Hakamning final hushragi chalinganda butun vujudimni aql bovar qilmas yengillik va cheksiz baxt tuyg‘usi qamrab oldi. Ko‘z oldimdan butun faoliyatim, bolaligim, shu kunlar uchun qilingan mehnatlar bir-bir o‘tdi. Biz buni uddaladik! Bu shunchaki g‘alaba emas. Bu — ota-onalarimizning duosi, davlatimiz rahbarining qo‘llab-quvvatlovi, yillar davomida bizga ishonib, maydonga tushganimizda biz bilan birga hayajonlangan, mag‘lubiyatimizdan qayg‘urgan va hech qachon umidini so‘ndirmagan xalqimizning g‘alabasi. Maydonda 11 kishi emas, butun O‘zbekiston bir tanu bir jon bo‘lib harakat qildi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu yutuqning haqiqiy egasi — xalqimiz!

Futbol, ayniqsa, darvozabon pozitsiyasida o‘ylashga ko‘p vaqt bo‘lmaydi. Hammasi soniyalar ichida sodir bo‘ladi. Bu — yillar davomida mashg‘ulotlarda shakllangan instinkt, reaksiya. Lekin o‘sha vaziyatda bir haqiqat aniq edi: ortimda nafaqat



darvoza, balki butun mamlakatim sha‘ni, xalqimizning orzusi turgandi.

Mana shu tarixiy natija yurtimizdagi hayotbaxsh islohotlarning, yaratilayotgan sharoitlarning ilk yirik mevasi bo‘ldi. Prezidentimizning tabrigi hamda shaxsan e‘tirof etgani zimnamizga yanada katta mas‘uliyat yuklaydi. Kelgusidagi o‘yinlar oldidan so‘nmas kuch-g‘ayrat bag‘ishlaydi. Biz bu ishonchni jahon chempionatida ham oqlashga va‘da beramiz!

BU SHONLI ZAFAR YO‘LI BARDAVOM BO‘LADI

**Ravshan IRMATOV,
O‘FA prezidentining birinchi o‘rinbosari:**

— Ilgari jahon chempionatida boshqa davlatlarning terma jamoasiga muxlislik qilardik. Biroq ich-ichimizdan shu nufuzli musobaqada yurtdoshlarimizning, o‘zbek o‘g‘lonlarining ishtirokini astoydil istardik. Chunki bu mustaqil davlatimiz va jonkuyar xalqimiz uchun yillar davomida ushalmay kelayotgan orzu edi.

BAAda bo‘lib o‘tgan hal qiluvchi o‘yinda yigitlarimiz ana shu orzuni ro‘yobga chiqardi. Bugun “Jahon chempionatiga chiqdik”, deb aytish oson, ammo bu natijaning ortida davlatimiz rahbarining ulkan e‘tibori, mehri, strategiyasi va ishonchi mujassamligini aslo unutmastik kerak!

Bu jonkuyarlikning samarasini nafaqat mundaialga yo‘llanma olganimizda, balki ungacha bo‘lgan bosqichlarda ham his qildik. Birgina Parijda bo‘lib o‘tgan olimpiadaga yo‘llanmani qo‘lga kiritgan sportchilarimizning shonli zafari yoki Saudiya Arabistonida 17 yoshgacha



bo‘lgan o‘smirlarimizning mardonavor o‘yini nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda katta e‘tirofga sazovor bo‘ldi.

Bu yutuq bir kunlik emas, balki davomli va shonli yo‘lning boshi ekaniga ishonaman. Chunki futbol — yurak ishi. Unda nafaqat o‘yinchi, balki butun millatning yuragi o‘ynaydi.

USHBU SHARAFLI NATIJA BIZGACHA BOSILGAN QADAMLAR SAMARASIDIR

**Abbosbek FAYZULLAYEV,
O‘zbekiston milliy terma jamoasi a‘zosi:**

— Bugungi g‘alabaga kechagi mag‘lubiyatlar, kechagi alamlar poydevor bo‘ldi. Eldor Shomurodov Shaskixning gollarini ko‘rib ulg‘aygani rost. Abduqodir Husanov Anzur Ismoilovga havas qilgani, Odil Hamrobekov Odil Ahmedovning qanoti ostida shu darajaga yetgani bor gap. Yusupovning seyvlarida Ignatiy Nesterovning ham ulushi bor... Murabbiyimiz Timur Kapadze kecha bizni — shogirdlarini bahsga chorlar ekan, yuragidan o‘tkazgan necha yillik orzuni taktika doskasiga to‘kib

soldi. Agar o‘z davrida Mirjalol Qosimov O‘mon va Qatarga jarima gollarini urmaganida bugun biz ushbu ochkolarni to‘play olmagan bo‘lardik, ehtimol...

Kimdir taslim bo‘lmay mana shu og‘ir yo‘lni bosib o‘tishi shart edi. Bu bizning chekimizga tushdi va biz buni uddaladik. Bizgacha bosilgan qadamlar tufayli bugungi natijaga yetib keldik. Shuning uchun futbolga daxldor barchaga rahmat aytaman, chin dildan tabriklayman. Ayniqsa, Prezidentimizning g‘alaba bilan tabriklagani katta quvonch bag‘ishladi. Mubarak Qurbon hayiti arafasida xalqimizga shodlik hadya etganimizdan mamnumiz. Bu bilan to‘xtab qolmaymiz. Qatarga qarshi o‘yinda chiroyli g‘alabaga erishib, jahon chempionatida yaxshi ishtirok etishga harakat qilamiz.



“


Kimdir taslim bo‘lmay mana shu og‘ir yo‘lni bosib o‘tishi shart edi. Bu bizning chekimizga tushdi va biz buni uddaladik. Bizgacha bosilgan qadamlar tufayli bugungi natijaga yetib keldik. Shuning uchun futbolga daxldor barchaga rahmat aytaman, chin dildan tabriklayman.

G‘AMXO‘RLIK VA YUKSAK ISHONCH UCHUN CHEKSIZ MINNATDORMIZ

**Eldor SHOMURODOV,
O‘zbekiston milliy terma jamoasi a‘zosi:**

— Ushbu sharaflı g‘alaba bilan butun xalqimizni tabriklayman. Bunday o‘yinlarda taktika yoki mahoratdan ham ko‘ra ruhiyat va xarakter birinchi o‘ringa chiqadi. Biz bunga tayyor edik. Raqib bosim qilgan daqiqalarda ham bir-birimizni qo‘llab-quvvatladik, kichik xatolar uchun asabiylashmadik. Chunki biz bir jamoagina emas, yagona oila ekanimizni bilardik. Mana shu birlik, mana shu ahillik bizga g‘alaba keltirdi.

Prezidentimizning sportga, xususan, futbolga qaratayotgan e‘tibori tufayli butun tizim o‘zgarmoqda. Buni har qadamda his qilib turibmiz. Davlatimiz rahbarining tabrigini esa shunchaki qutlov so‘zi emas, bizga bildirilgan otalarcha g‘amxo‘rlik va ulkan ishonch ramzi sifatida qabul qildik. Bu ishonch bizni yanada kuchli, mas‘uliyatli bo‘lishga undaydi. Endi biz jahon chempionatida nafaqat futbolchi, balki yangi O‘zbekistonning yosh, shijoatli vakillari sifatida maydonga tushamiz. Yuksak natijalarga erishish uchun bor imkoniyatimizni ishga solamiz.



MA’RIFATLI, ISHBILARMON XOTIN-QIZLAR SAFI KENGAYMOQDA

ULARNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASH BORASIDAGI ISLOHOTLAR E’TIROF ETILDI



Zulayho MAHKAMOVA,
Bosh vazir o‘rinbosari —
Oila va xotin-qizlar
qo‘mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Shu bilan birga, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qo‘shma dasturlar ham strategik hamkorligimizda ustuvor yo‘nalishga aylandi. Qabul qilingan o‘zaro muhim qarorlar esa xalqarimiz farovonligi va barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Forum O‘zbekiston va Xitoy ayol-qizlari o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash, tajriba va g‘oyalarni almashish, yangi imkoniyatlarni ochish uchun qulay muloqot maydoni bo‘ldi. Binobarin, forumdan ko‘zlangan maqsad ham O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida investitsiyalarni jalb qilish, tadbirkorlik, savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni kuchaytirishda xotin-qizlar ishtirokini kengaytirish, ikki davlat tadbirkor ayollari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri sheriklikni mustahkamlash, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalarida tajriba almashish uchun o‘ziga xos muloqot maydoni yaratishdan iborat edi.

Forum oldiga qator ustuvor vazifalar qo‘yilgani bilan ahamiyatli. Jumladan, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikda ayollarning roli va ta’sirini kuchaytirish, ayollar tadbirkorligi va innovatsiya sohasida ilg‘or tajribalarni o‘rtiqloqlash va yangi hamkorlik modellari ishlab chiqish, tadbirkor ayollar o‘rtasida yuzma-yuz biznes muloqotlar, uchrashuv va muzokaralar o‘tkazish, sheriklik shartnomalarini tuzish, ayollarning biznes loyihalarini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish, qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish.

Shuningdek, o‘zaro hamkorlikning eng istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash, “yashil” biznesni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan kelishuvlarga erishish, yuqori texnologiyalar, raqamlashtirish va sanoatni modernizatsiya qilish, barqaror rivojlanish uchun “Smart” yechimlarni ilgari surish, tadbirkor ayollar hamjamiyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘quv dasturlarini tashkil etish maqsad qilingan.

Bundan tashqari, xotin-qizlarning innovatsiya va tadbirkorlik tashabbuslarini keng namoyon qilish uchun rejalashtirilgan loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish orqali natijali kelishuvlarga erishish, hududlararo hamkorlikni kengaytirish: “Ipak yo‘li ayollari” formatida ko‘p tomonlama muloqotni rivojlantirish, Shensi viloyati va O‘zbekiston hududlari o‘rtasida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Tadbir doirasida O‘zbekiston — Xitoy mahsulotlari ko‘rgazmasi tashkil etildi. Ko‘rgazmaning O‘zbekiston milliy ekspozitsiyasi qismida xotin-qizlarning turli milliy hunarmandchilik ishlari namoyish etildi.

Xitoy Xalq siyosiy maslahat kengashi 14-chaqiriq yig‘ilishi raisining o‘rinbosari, SHHTning qo‘shimchilik, do‘stlik va hamkorlik bo‘yicha Xitoy qo‘mitasi raisi Shen Yue Yue xonim va boshqalar mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik yangi bosqichga olib chiqilganiga e’tibor qaratib, O‘zbekistonda ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlarni alohida e’tirof etdi. Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha takliflar bildirildi.

Forum davomidagi taqdimotlar, umuman, mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini

qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Chin yurti vakillarining haqli e’tiroflariga sazovor bo‘ldi.

“Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida xotin-qizlar uchun yaratilgan imkoniyat va shart-sharoitlar o‘zbekistonlik ayollarga beqiyos kuch-g‘ayrat bag‘ishlamoqda. Mamlakatingizda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi kundan kunga ortyapti. Ular iqtisodiyot, tadbirkorlik va taraqqiyotning barcha sohasida faol ishtirok etish orqali jamiyatning muhim va mustahkam ustuniga aylanmoqda.

O‘zbekiston — Xitoy munosabatlarda xotin-qizlar ulushini oshirish va o‘mini yanada mustahkamlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bois, O‘zbekiston — Xitoy II hududlararo forumi doirasida innovatsiyalar hamda tadbirkorlik bo‘yicha xalqaro ayollar forumi tashkil etilgani bu boradagi muhim qadamdir. Bu forum ayollarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi faol ishtiroki va tashabbuslariga berilayotgan yuqori bahoning o‘ziga xos ifodasi bo‘ldi.

Biz birgalikda kambag‘allikni qisqartirish, sog‘liqni saqlash, ta’lim, tadbirkorlik va boshqa ijtimoiy sohalarida hamkorlikni kengaytirish, innovatsiya va tadbirkorlik salohiyatini yanada ochish orqali “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusini yangi bosqichga olib chiqishga hissa qo‘shamiz”, dedi Xitoy Xalq siyosiy maslahat kengashi raisi o‘rinbosari, SHHTning qo‘shimchilik, do‘stlik va hamkorlik bo‘yicha Xitoy qo‘mitasi raisi Shen Yue Yue.

Shensi viloyati Xanchjong shahri Ayollar federatsiyasi prezidenti Li Ni davlatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlik rivojiga yuksak baho berib, “Bugun biz ochiqlik va o‘zaro manfaatlar prinsiplariga tayanagan holda o‘zbekistonlik opa-singillarimiz bilan qo‘lni qo‘lga berib, ikki



siyosiy partiyalar, biznes va jamoatchilik faoliyatidagi nufuzi tobora yuksalmoqda. Xususan, 2017-yilda boshqaruv sohasida xotin-qizlar ulushi o‘rtacha 27 foiz bo‘lgan bo‘lsa, hozir bu ko‘rsatkich 35 foizga yetdi. Ayollar ulushi tadbirkorlik sohasida 45 foiz, siyosiy partiyalar tarkibida 49 foizni tashkil etmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizi, Senat a’zolarining esa 27 foizi, xalq deputatlari mahalliy kengashlari deputatlarining 32 foizi xotin-qizlardir. Bu natija kuchli siyosiy iroda, xalqchil yondashuv va eng muhimi, xotin-qizlarning imkoniyatiga bildirilgan yuksak ishonch samarasidir.



mamlakat ayollari va bolalari uchun go‘zal kelajak yaratish yo‘lida harakat qilyapmiz. Biz hunarmandchilik, uy xizmati va boshqa sohalaridagi ayollar tadbirkorligi borasida ilg‘or tajribalar almashish va faol hamkorlik qilishga tayyormiz”, dedi.

Xitoy xalqida “Teran mehnat va tejamkorlik bilan oila boshqarilsa, qiyinchiliklardan qochish mumkin” degan maqol bor. Bizda esa “Mehnat qo‘li toshni ham oltinga aylantiradi” degan chuqur ma’no ifodalangan hikmat mavjud. Butunxitoy Xotin-qizlar federatsiyasi doimiy qo‘mitasi a’zosi, Shensi viloyati Xotin-qizlar federatsiyasi raisi Van Yuye ana shu umumiy qadriyatlarimiz asosida innovatsiya va tadbirkorlik yo‘lida ulkan yutuqlarga erishishimiz mumkinligiga ishonch bildirdi.

“Xitoy va O‘zbekiston xotin-qizlari o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik va birdamlik aloqalarini yanada mustahkamlab, umumiy taraqqiyot va farovonlik yo‘lida mehnat qo‘llarimizni birlashtiraylik”, dedi Van Yuye.

Inson qadriini ulug‘lash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash davlatimiz siyosatida ustuvor o‘rin tutadi. Bugun o‘zbekistonlik ayollar nafaqat oilaning ma’naviy posboni, balki innovatsion va ilhomlantiruvchi g‘oyalarni insoniyat uchun xizmat qiladigan yirik loyihalar muallifi, faol tadbirkor, siyosiy jarayonlarni harakatlantiruvchi kuchga aylanib bormoqda. Xotin-qizlar turli soha va tarmoqlarda samarali faoliyat yuritib, vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shyapti.

O‘zbekistondagi xotin-qizlarning parlament,

ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, gender tenglikni ta’minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xotin-qizlar va oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi amaliyotga joriy etildi.

Bugun jamiyatimizda ichki va tashqi bozorda mustahkam o‘rni, nufuzi va brendiga ega bo‘lgan haqiqiy tadbirkorlar sinfi shakllana boshladi. Yuksak natijalarni qo‘lga kiritgan, xotin-qizlarni ish bilan ta’minlagan, oilalar farovonligiga, yurtimiz iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shayotgan ayollar munosib e’tirof etilmoqda.

Keyingi 4 yilda 16 tadbirkor ayol nufuzli davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. 53 nafar “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanib, har biri 50 million so‘mdan grant mablag‘ini qo‘lga kiritdi.

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan tadbirkor” unvoni ta’sis etilib, ushbu unvon bilan ilk bor ayol kishi taqdirlangani yangi O‘zbekistonda ayol zotiga ehtiromning yana bir yorqin namunasi bo‘ldi.

Hozir 6200 dan ortiq xotin-qiz ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgani, ilmiy ishlarni rivojlantirish 25 foizini olimlarimiz yaratayotgani ham

Bugun O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining 45 foizi, ya’ni 217 mingdan ortig‘iga ayollar rahbarlik qilmoqda. Yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritib kelayotgan biznes subyektlarining 96 mingga yaqinini ayollar boshqarmoqda.

Tijorat banklari tomonidan ayollarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 10 dan ortiq loyiha amalga oshirildi. Oilalar iqtisodiyotini barqarorlashtirish hamda biznesini rivojlantirishga ko‘maklashilmoqda.

2024-yilda xotin-qizlar tadbirkorligi uchun 17 trillion so‘m kredit ajratildi. Natijada ayol tadbirkorlar 81 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarib, 450 million dollarlik eksportga erishdi.

O‘tgan yilda 300 mingga yaqin xotin-qiz mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunar va tadbirkorlik bo‘yicha o‘qitildi.

Faoliyatini endi boshlayotgan tadbirkor ayollar uchun mahsulotni bozorga olib chiqish, elektron savdoda ishtirok etish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Barcha hududda “Ayollar biznesini qo‘llab-quvvatlash” muloqoti yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentimizning 2024-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga

Hududlarda xotin-qizlar ishtirokidagi biznes tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash izchil davom ettirilmoqda. “Loyihalar fabrikasi” elektron platformasi va “HAMROH” tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash dasturi kabi tashabbuslar ayollarning biznesga kirib kelishini yengillashtirmoqda.

Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan Tadbirkor ayollar kengashi tashkil etildi va ayol tadbirkorlarning muammolarini bevosita parlamentga yetkazish mexanizmi joriy etildi.

2025-yildan xotin-qizlar tadbirkorligi bo‘yicha to‘rt bosqichli tizim — “Biznesga ilk qadam”, “Biznesni yo‘lga qo‘yish”, “Biznesni kengaytirish” va “Biznesni yuksaltirish” loyihasi amaliyotga tatbiq etildi. Bu orqali chempion ayol tadbirkorlar sinfini shakllantirish rejalashtirildi.

Bu kabi keng qamrovli islohotlar mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, 2024-yilda O‘zbekiston uchun ustuvor bo‘lgan 20 ta xalqaro reyting va indeksning 10 tasida mamlakatimizning ko‘rsatkichlari yaxshilandi.

Jumladan, “Ayollar, biznes va qonun” indeksida mamlakatimiz 82,5 ball ko‘rsatkichni qayd etgani holda 48 pog‘ona yuksalib, 190 davlat orasida 91-o‘rinni egalladi. Bu gender tenglik, ayollar huquqlari va imkoniyatlarini ta’minlash sohasidagi keng qamrovli islohotlar samarasining yorqin ifodasidir.

Iqtisodiy erkinlik indeksida O‘zbekiston 6 pog‘ona ko‘tarilib, 103-o‘rinni egalladi. Ayni pallada minglab o‘zbekistonlik ayol-qizning yangi startaplari, ijtimoiy loyihalari, ilmiy-innovatsion tadqiqotlari dunyo miqyosida e’tirof etilmoqda.

Umuman olganda, Samarqandda bo‘lib o‘tgan xalqaro ayollar forumi katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Zero, mamlakatimizdagi tarixiy yangilanishlar jarayonida opa-singillarimiz yangilanishlar manbai, taraqqiyot va o‘zgarishlarning faol ishtirokchisi sifatida yuksak o‘rin tutyapti.

Zamonaviy raqamlashgan dunyoda taraqqiyotning asosiy drayverlaridan biri ayollar tashabbusidir. Shu bois, forum qator jihatlari bilan g‘oyat ahamiyatli. Jumladan, xotin-qizlar tadbirkorligi va innovatsiya sohalarida ilg‘or tajriba hamda g‘oyalarni almashish, o‘zaro savdo-iqtisodiy hamkorlikda ayollarning o‘rni va ta’sirini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Ellikdan ortiq mamlakatning eng ilg‘or tadbirkor ayollari, biznes vakillari ishtirok etgan forum doirasida o‘zaro hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha ko‘plab kelishuvlarga erishildi. Jumladan, 255,7 million dollar qiymatidagi shartnoma va memorandumlarni imzolandi, 31 tadbirkor ayol Xitoyning yirik kompaniyalari bilan hamkorlik o‘rnatdi.

Bugun ayollarning innovatsion hamda tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish, biznesdagi imkoniyatlarini kengaytirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash butun dunyoda iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda. Tadbirkorlikda ayollarning faol ishtiroki nafaqat gender tenglikni ta’minlaydi, balki mamlakatlar iqtisodiyotiga yangi g‘oya va innovatsion yondashuvlarni olib kiradi, barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.



jamiyatda nafis xilqat egalarining o‘rni mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Xususan, “INNOWOMENWEEK” haftaligi, “Ayol, biznes va innovatsiya”, “XXI asr ilmi-fani va biznesda ayollar”, “Ixtirochi ayollar” kabi xalqaro forum va ko‘rgazmalar xotin-qizlarning ilmiy va innovatsion salohiyatini namoyon etishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, IT kasblariga o‘qitish, akselerator va inkubator dasturlarida qatnashish imkoniyatini yanada kengaytirmoqda.

qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida 100 million dollar, 2025-yil 7-martdagi “Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan esa 200 million dollar miqdorida kredit resurslari ajratildi. Bu orqali 2 million ayolning bandligi ta’minlanishi, 1,3 million nafarini tadbirkorlikka jalb etish rejalashtirildi.

YANGI O‘ZBEKISTON

Mulohaza

Yangi O‘zbekiston, avvalo, xotin-qizlarning huquqlari, orzu-umidlari, qiziqishlari va iqtidorini to‘liq ro‘yobga chiqara oladigan davlat degan ezgu g‘oya bugungi kun islohotlarining asosiy mezoniga aylanyapti. Zero, ayollarning nafaqat oilada, balki davlat boshqaruvi, tadbirkorlik, ilm-fan, ta‘lim, tibbiyot, siyosat kabi sohalarida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Islohotlar ularning qadrini ulug‘lash, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ayniqsa, yosh onalar himoyasida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

STEREOTIPLARNI O‘ZGARTIRISH VAQTI KELDI

Sog‘lom ona — sog‘lom avlod garovi. Ayollar himoyasi nafaqat davlat siyosatining muhim yo‘nalishi, balki jamiyat taraqqiyotining poydevori hamdir. Ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, berilayotgan moddiy va ma‘naviy yordam sog‘lom avlodni yetuk hamda barkamol qilib voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda. Bugungi yosh ona, oila bekasi ertaga rivojlanadigan jamiyat asoschisi ekanini unutmashimiz lozim.

Ammo yurtimizda necha yuz yillardan buyon hukm surayotgan ba‘zi udumlar va eskicha qarashlar borki, bu

BAXTLI BOLALIKNI TA‘MINLASHDA NAMUNA KO‘RSATAYLIK

Muqaddas O‘RAZALIYEVA, Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati:

— Bugungi ayol faqat oila parvarishi bilan shug‘ullanuvchi emas, balki davlat va jamiyat rivojida faol ishtirokchi, tashabbuskor va ilg‘or kuchdir. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida ham xotin-qizlarning faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, dengiz tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va sharoitlar yaratib berilyapti. Bu ishlar zaminida nafaqat ularning bilimli, malakali, hunarli bo‘lishi, balki oilada kamol topayotgan farzandlariga cheksiz mehr ko‘rsatib, yetarlicha tarbiya bera olishi kabi ustuvor mezonlar ham mavjud.

Ammo sharoitlar bisyor bo‘lsa-da, shukr qilish o‘rniga jamiyatda ham, oilada ham turli ziddiyatlarni, urush-janjallarni keltirib chiqarayotgan, bir-biriga dushman ko‘zi

QAYNONAM TUFAYLI AJRASHDIK

Nafisa AZIZOVA, 21 yosh:

— Turmushga chiqqanimdan buyon qaynonam bilan sira chiqisha olmadim. U boshqa bir boy xonadonning qizini kelin qilmoqchi bo‘lgan. Lekin turmush o‘rtog‘im meni tanlagan. Kelin bo‘lib tushgan kunimdan boshlab yoqmadim. Qaynonam nufuzli davlat idorasida ishlaydi. Xullas, har bir ishimdan, bosgan qadamimdan kamchilik topaverdi. “Seni baribir kelin o‘rnida ko‘rmayman, tengimiz emassan”, derdi. Hamshiralikka o‘qigan bo‘lsam-da, ishlashga ruxsat bermadi. Oilamiz buzilmasligi uchun indamay rozi bo‘ldim.

To‘yimizdan 5 oy o‘tgach, to‘satdan qaynotam yurak xuruji bilan 50 yoshga ham kirmay vafot etdi. Shundan so‘ng oiladagi janjallar yanada kattalashdi. Bu orada homilador bo‘ldim. Buni bilgan qaynonam “Sen bir kambag‘al oiladan bo‘lsang, o‘zingga o‘xshagan o‘qimaganlarni ko‘paytirib, boyligimga, hovlingma ega chiqmoqchimisam?” deya baqir-chaqir qildi. Turmush o‘rtog‘im o‘rtada na onasiga biror gap ayta oldi, na meni himoya qildi. Axiyri ota uyimga qaytib ketishga majbur bo‘ldim.

Farzandli bo‘lsak, ajrashib ketmasmiz degan umid bor edi ko‘nglimda. O‘g‘lim tug‘ilganida esa erim ham, qaynonam ham yo‘qlab kelmadi. Bundan ranjigan ota-onam “Bo‘lmagan ishini bo‘ldirishdan foyda yo‘q, agar qaytib borsang, bundan battar xor bo‘lasan”, dedi. Biz ajrashdik. Turmush o‘rtog‘im onasi aytgan boy xonadon qiziga uylandi. Men begunoh tug‘ilgan o‘g‘ilcham bilan chiqqilab qolaverdim...

Kasbimiz qat’ozosi bilan el orasida yurib, turli taqdir egalari bo‘lmish yoshgina kelinlar bilan suhbatlashar ekanmiz, turmush o‘rtog‘i emas, aynan qaynonalar tufayli ajralishlar ko‘payib borayotganiga guvoh bo‘lamiz. O‘ylanib qolamiz, vazifasi o‘rnak ko‘rsatish bo‘lmish onaxonlar nevaralarining tirik yetim bo‘lishiga nega sababchi bo‘lyapti? Axir bu gunoh va kechirilmas xato emasmi?



BA‘ZAN QULOQNI KAR, KO‘ZNI KO‘R QILISH LOZIM

Shoira AHMEDOVA, Osiyo xalqaro universiteti professori, Buxoro viloyati Buvijonlar maktabi jamoatchilik guruhi rahbari:

— Bir oilaning bunyod bo‘lishi yangi dunyo tuzishday gap. Chunki unda turfa odamlar va turli taqdirilar birlashadi. Oila tinchligini birday asrash, tovlug‘ini ta‘minlash chindan ham qaynonalarning zimmasidagi asosiy vazifadir. Mutaaxassislar aytishicha, oiladagi janjallarning 50 foizi qaynona aybi bilan sodir bo‘ladi. Ayrimlar asosiy janjal moddiy yetishmovchilikdan kelib chiqadi deb o‘ylaydi. So‘nggi vaqtlarda yangi turmush qurganlar o‘rtasida



STEREOTIPLARNI O‘ZGARTIRISH VAQTI KELDI

ayollarni, ayniqsa, kelinlarni xizmatkor sifatida ko‘rishga olib keladi. Go‘yo kelin xonadonga ertadan kechgacha uy yumushlari bilan band bo‘lish, qaynota, qaynona, turmush o‘rtog‘i va boshqalarning xizmatini bekamu ko‘st bajarish va yoki bola tug‘ib, avlodlar davomiyligini ta‘minlash uchungina keladi deb bilishadi.

Kelinning zimmasiga keragidan ortiq vazifalar yuklanadi va unga xizmatkorday munosabatda bo‘linadi. Aynan shu qarashlar natijasida ajralishlar kuzatilmoqda.

“Ajrashishlar bugungi yoki kechagi gap emas. Bu borada tushuntirish ishlari olib borilyapti, yarashtirish komissiyalari ishlayapti, ammo baribir ajralishlar kamaymayapti. Fikrimcha, yoshlarning baxtli-saodatli yashashi uchun, avvalo, zamonaviy qaynonalarning hayotga qarashlari o‘zgarishi kerak.

BUGUNGI YOKI KECHAGI GAP EMAS

Gulnora MIRZAAIMOVA, Toshkent shahar sud fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati sudyasi:

— Yosh oilalarning ajrashib ketishiga eng ko‘p hollarda uchinchi shaxsning aralashuvi sabab bo‘lyapti. Ish yuzasidan qilgan tahlillarimiz ko‘rsatmoqdaki, ajrashish arafasida turgan va ajralish qayd etilgan oilalarning muammolari turlicha. Lekin alam qiladigani, ko‘ngilni og‘ritadigani va eng achinarlisi, ajralishlarning katta qismi jiddiy sabablarsiz kelib chiqmoqda. “Xarakterimiz to‘g‘ri kelmadi, qaynona zolim, kelinim ishiyomas, kuyov ichuvchi” kabi bahonalar bilan tirik yetimlar soni ortmoqda.

Qanchalar o‘zaro kelishuvga chaqirmaylik, orada o‘ylab ko‘rish uchun fursat bermaylik, baribir ajralishlar soni kamaymayapti. Ko‘pgina qaynonalar kelin ham birovning farzandi, uni himoya qilish, uy-joy bilan ta‘minlash erkakning vazifasi ekanini o‘g‘liga aytmaydi. Agar millat erklari mard bo‘lsa, ajralishlar bo‘lmasmidi?!

O‘z misolimda aytamanki, oila tinchligida qaynonalarning roli juda ham katta. Ular kelinga o‘z bolasidek e‘tibor qaratmas ekan, ajrashishlar oshib boraveradi. Deylik, qaysidir oilaga tushgan kelin ozgina uquvsizroq, uy ishlarga episizroqdir, balki muomala madaniyatida kamchiligi bordir. Shunday paytda biz, qaynonalar o‘rtada turib, bag‘rikenroq bo‘laylik, bilmaganini o‘rgataylik. O‘g‘limizga ham og‘irrok bo‘lishni nasihat qilaylik.

Hozir 66 yoshdaman. 2 o‘g‘il, 2 qizim va 5 nevaram bor. Kelinlarimni o‘z farzandlarimday ko‘raman. Kezi kelsa urishaman, kezi kelsa erkalayman, lekin oila zanjirini mustahkam

nazarga ilmaydigan kelinlar ham bor. O‘z faoliyatim davomida necha yillardan buyon qaynona va kelin mavzusida tadbirlar uyushtirib, uchrashuvlar o‘tkazyapmiz. “Kelin olish oson, qaynona bo‘lish qiyin”, deya momolarimiz o‘g‘itlarini targ‘ib qilib kelyapmiz. Muammoning ildizi nimada, aslida kim aybdor, degan savolga doim ham javob topish qiyin kechmoqda. Qaynona “Yoshim ulug‘, mayli, men kechirimli bo‘lay”, kelin “Qaynonamning hurmatini joyiga qo‘yib, duosini olay” demasa, oilada kelishmovchiliklar bo‘laveradi.

Buxoro viloyati Buvijonlar maktabi jamoatchilik guruhi rahbari sifatida ko‘plab ajralishlarning oldini olishga harakat qilayapman. Buvijonlar guruhi a‘zolari bilan televideniye orqali “Ahilikning siri” ko‘rsatuvimiz ham bor. Bu ko‘rsatuv orqali ibratli oilalarni namuna qilib ekranga olib chiqamiz. Keksas buvijonlar bilan hamjihatlikda xonadonlarga kirib, ajrashish yoqasiga kelib qolgan oilalarni yarashtirishga erishyapmiz.

Aslida, ko‘p ajrashishlarga kelinlarning sabrsizligi va qaynonalarning mammanligi sabab bo‘lmoqda. O‘zimizning ikki o‘g‘il, ikki qiz va 9 nevaram bor. Ikkala kelinim ham oliy ma‘lumodli, ular magistraturada o‘qishi uchun sharoit yaratib berganman, til sertifikatini olib o‘qishga kirsin, ishlarimni davom ettirsin deb harakat qilayapman. Kelinlarimga ham, nevaralarimga ham ko‘pincha kitob sovg‘a qilaman. Menimcha, qaynona kelinining kamchiligini yashirib, yutuqlarini oshirib borsa, oiladagi ziddiyat o‘z-o‘zidan barham topadi. O‘g‘lingning baxti uchun ba‘zan quloqni kar, ko‘zni ko‘r qilish kerak. Ana shunda oilada murosayu madora bo‘ladi.

TOLEYI YORUG‘ VA ERTASI NURLI

Joriy yilning mart oyida davlatimiz rahbari Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimimiz nutqida **“Bir haqiqatni barchamiz yaxshi tushunib olishimiz zarur. Ayollarning tashvish va mashaqqati ham, zimmasidagi mas‘uliyati ham erkaklarga nisbatan ancha yuqori. Uy-ro‘zg‘or ishlari va farzand tarbiyasidan ortib, ta‘lim olayotgan, mehnat qilayotgan va tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan xotin-qizlar jamoatimizning haqiqiy qurallaronlari, desak to‘g‘ri bo‘ladi.**

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning og‘irini yengil qilish, ular uchun barcha sohalarida zarur sharoitlarni yaratib berish doimo davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi”, deya ta‘kidladi.

Chindan ham yurtimizda xotin-qizlar uchun shunchalar ko‘p imkoniyatlar eshigi ochib berilayotgani har bir ayolning baxtli yashashiga mustahkam zamin bo‘layotir. Biroq fikri tor ba‘zi qaynona va kelinlar bir-birimizni yoqtirmaymiz, kelisha olmaymiz degan iddao bilan oila parokanda, farzandlar yetim qolishiga sabab bo‘lyapti. Axir bu o‘z hayotiga, yaratib berilayotgan sharoitlarga, izchil islohotlarga bepisandlik, noshukrlk emasmi?

Jamiyatimizda baxtga to‘lib, bir-birini e‘zozlab yashayotgan qaynona va kelinlar juda ko‘p. Shunday ekan, obod va ozod diyorimizni bolajonlarning shodon kulgilari qamrab olaversin, yon-atrofimizdagi ayollarning nafasidan esa baxtiyorlik ufuraversin. Zero, ayollari va bolalari baxtli jamiyatning tolei yorug‘ va ertasi nurlidir.

Gulichehra DURDIYEVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

2025-yil 7-iyun, 115-son

Toshoyna

5

TO‘YIDAN TO‘YCHIG‘I KO‘P ERKAKLARNI HAM ORZU-HAVAS DEGAN LATTA-PUTTAGA O‘RALASHTIRDIK

Xalqimizga xos xislatlarni sanaganda to‘ysevarlik, mehmonnavozlik qo‘shib o‘tiladi. Uyiga mehmon kelganda suyunmagan, uy qurganda eng yaxshi xonani mehmonxona uchun ajratmagan o‘zbek bormikan? Gap mana shu xislatni, fazilatni kattartirib va bachkanalashtirib yuborganimiz haqida.

To‘y aslida xursandchilik va yaqinlar bilan nishonlanadigan marosim. Ko‘pning duosi ko‘l deb ko‘pchilikning ishtirokida shodiyona qilishni istaymiz. Shu istaklar kattaraverdi, kattaraverdi va to‘y degan muammo paydo bo‘ldi. Bir kuni bozor aylanib yursam, bir ayolning tobi qochib, do‘kon oldida turgan o‘rindiqqa o‘tirib qoldi. Kimdir suv tutdi, yana kimdir yelpidi. To‘planganlardan biri “To‘y qilsa kerak-da bechora. Tashvish shunaqa charchatib qo‘yadi”, dedi. Miyamda “majlis” boshlanib ketdi. To‘y qiladigan odam yorug‘ orzular bilan yurmasmidi? To‘y qiladiganga bechora deb qarash qachon boshlandi? Yoki xastaroq odam haqida to‘y qilsa kerak deya taxmin qilishga qachon ulguridik? To‘y odamni qulatadimi?..

To‘y va marosim masalasiga nihoyatda berilib ketdik. Hatto bizni ichdan ado qilsa ham, qarzga botsak ham, yiqilsak ham kimo‘zarlikdan to‘xtamayapmiz. To‘ydan to‘ychiqni ko‘paytirib yuborganmiz. To‘ygacha bor, tovog‘im, to‘ydan keyin kel, tovog‘im. Voy bu marosimchalargayam topilgan nomlarni urflar ham qiziq. Oddiygina kelin-kuyovning xonasini bezatishga ikki-uch ayol tog‘ora bilan qudaning uyiga yuk olib ketarkan. Yarim kosa mastavaga to‘yadigan qorin bor. Nima kerak, qilmasa bo‘lmaydi degan stereotiplar?

Biz, ayollar barcha marosimda o‘zimiz o‘ylab topib, kattalashtirib borayotgan



“Farzandlarimizga kamida ikkita tilni o‘rgataylik. Sport va axborot texnologiyalari to‘garaklariga qatnashi uchun mablag‘ni ayamaylik. Xullas, bo‘sh vaqtini qoldirmasak, kitob o‘qishga qiziqish uyg‘ota olsak, uning kelajagini mayda orzularga qorishtirib tashlamaymiz. Bir onaning “Opangning to‘yini o‘tkazib olaylik, keyin ingliz tiliga qatnaysan”, deb farzandini yupatganini o‘z qulog‘im bilan eshitganman. Bir bolasining to‘yi deb boshqasining orzulariga to‘g‘onoq bo‘layotgan oilalar kammi?!

udumlarga bosh-qoshmiz. Erkaklar bizga yengildi. Er yigitlarni ham orzu-havas degan latta-puttaga o‘ralashtirib tashladik. Katta-katta orzu qilishga udumlarimiz xalal beryapti. Endi ayollar qolib, ayrim erkaklar ham oldi-berdining ipidan ignasigacha aralashmoqda. Stolga bir mustur urib, mening aytganim bo‘ladi, deyishini kutayapmiz.

Televizorda reklama chiqib qoladi: “Siz to‘y qilaysiz-u, mebelni qayerdan olishni bilmay turibisizmi?”. Shartta o‘chirib, ijtimoiy tarmoqlarga qarayman: “Chinni buyumlar do‘konida aksiya! Yangi oilaga yangi billur idishlar!”. Uyimizdagi idishlar ko‘pligini boshqa uyga ko‘chayotganda his qildim. To‘y qilish arafasida edik. Kelin tomonga yalimb-yolvordim. Idish-tovuq, taqir-tuqir qilinganglar deb. Quda bo‘lmish hayron. Zamonaviyro‘g‘idan olishni niyat qilgan. Olib keladigan mehmonlarni bor. Yo‘q, dedim qat‘iy. Xudoga shukr, bolalarimiz baxtli. Agar zarhal billurlar baxtni belgilaganida...

Farzandlarimizga kamida ikkita tilni o‘rgataylik. Sport va axborot texnologiyalari to‘garaklariga qatnashi uchun mablag‘ni ayamaylik. Xullas, bo‘sh vaqtini qoldirmasak, kitob o‘qishga qiziqish uyg‘ota olsak, uning kelajagini mayda orzularga qorishtirib tashlamaymiz. Bir onaning “Opangning to‘yini o‘tkazib olaylik, keyin ingliz tiliga qatnaysan”, deb farzandini yupatganini o‘z qulog‘im bilan eshitganman. Bir bolasining to‘yi deb

Manzura SHAMSIYEVA, jurnalist

